O'ZBEKISTONDA YOSHLAR TADBIRKORLIGINI QO'LLAB-QUVVATLASH MENEJMENTI EKOTIZIMINING IQTISODIY AHAMIYATI

Azimova Dilnoza Azamatovna
O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
dilnoza.azamatovna@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash menejmenti ekotizimining iqtisodiy ahamiyati tadqiq etilgan. So'ngi yillarda O'zbekistonda yoshlarning katta qismi mehnat bozoriga kirib kelishi natijasida yangi ish o'rinlariga bo'lgan ehtiyoj ortayotgani iqtisodiyotda kichik biznesning yuqori ulushga ega ekanligini ko'rsatmoqda. Tadqiqot davomida O'zbekistonda kichik tadbirkorlikning YaIMdagi hajmi, bandlikdagi ulushi, menejment ekotizimining asosiy komponentlari, yoshlar tadbirkorligi ekotizimida inson kapitalining roli, yoshlar tadbirkorligi ekotizimi uchun muhim iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotda, asosan, tizimli, statistik, qiyosiy, institutsional va kontent-tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot natijasida yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish va uni qo'llab-quvvatlash bo'yicha menejment ekotizimi modeli, ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: yoshlar tadbirkorligi, tadbirkorlik ekotizimi, menejment, kichik biznes, startap, biznes inkubator, mentorlik, moliyalashtirish, inson kapitali, innovatsiya, bandlik, raqamli iqtisodiyot.

ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ ЭКОСИСТЕМЫ ПОДДЕРЖКИ МОЛОДЕЖНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация: В данной статье исследуется экономическое значение экосистемы менеджмента поддержки молодежного предпринимательства в Узбекистане. В последние годы в связи с вступлением значительной части молодежи Узбекистана на рынок труда возрастает потребность в создании новых рабочих мест, что также свидетельствует о высокой доле малого бизнеса в экономике. В ходе исследования проанализированы объем малого предпринимательства в ВВП Узбекистана, его доля в занятости, основные компоненты экосистемы менеджмента, роль человеческого капитала в экосистеме молодежного предпринимательства, а также важные экономические показатели для экосистемы молодежного предпринимательства. В данном исследовании в основном использовались системный, статистический, сравнительный, институциональный методы и метод контент-анализа. В результате исследования разработаны модель экосистемы менеджмента по развитию и поддержке молодежного предпринимательства, научные предложения и практические рекомендации.

Ключевые слова: молодежное предпринимательство, предпринимательская экосистема, менеджмент, малый бизнес, стартап, бизнес-инкубатор, наставничество, финансирование, человеческий капитал, инновации, занятость, цифровая экономика.

THE ECONOMIC SIGNIFICANCE OF THE MANAGEMENT ECOSYSTEM FOR SUPPORTING YOUTH ENTREPRENEURSHIP IN UZBEKISTAN

Abstract: This article examines the economic significance of the management ecosystem for supporting youth entrepreneurship in Uzbekistan. In recent years, as a significant proportion of young people in Uzbekistan have entered the labor market, the need for new jobs has increased, which also demonstrates the high share of small businesses in the economy. The study analyzes the volume of small entrepreneurship in Uzbekistan's GDP, its

share in employment, the main components of the management ecosystem, the role of human capital in the youth entrepreneurship ecosystem, as well as important economic indicators for the youth entrepreneurship ecosystem. The study mainly employs systemic, statistical, comparative, institutional, and content analysis methods. As a result of the study, a management ecosystem model for the development and support of youth entrepreneurship, as well as scientific proposals and practical recommendations, have been developed.

Keywords: youth entrepreneurship, entrepreneurial ecosystem, management, small business, startup, business incubator, mentoring, financing, human capital, innovation, employment, digital economy.

KIRISH

Bugungi kunda yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish va ularni iqtisodiy faoliyatga keng jalb etish bandlikni ta’minlash, yangi ish o’rinlarini yaratish hamda iqtisodiy faollikni oshirishning muhim yo’nalishlaridan biri hisoblanadi. Xalqaro Mehnat Tashkiloti ma’lumotlariga ko’ra, 2025-yilda dunyo bo’yicha yoshlar ishsizligi darajasi 12,4 foizni tashkil etib, 15–24 yoshdagi 67 million nafar yosh ishsiz bo’lgan. Shu sababli yoshlarning tadbirkorlik salohiyatidan samarali foydalanish va ularni qo’llab-quvvatlashning samarali boshqaruv mexanizmlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O’zbekistonda ham yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish mamlakat iqtisodiy siyosatining muhim yo’nalishlaridan biri sifatida shakllanmoqda. 2025-yilda kichik biznesning YaIMdagi ulushi 52,2 foizni, jami bandlikdagi ulushi esa 74,9 foizni tashkil etdi. Ushbu ko’rsatkichlar kichik biznes va tadbirkorlikning mamlakat iqtisodiyotidagi muhim o’rnini namoyon etadi.

Mazkur yo’nalishda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi PQ-62-son qarorida yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish, ularning bandligini ta’minlashga qaratilgan biznes loyihalarni qo’llab-quvvatlash hamda moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilangan. Ushbu mexanizmlar yosh tadbirkorlarning biznes tashabbuslarini qo’llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qilmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, davlat organlari, moliya institutlari, ta’lim muassasalari, biznes-inkubatorlar, akseleratorlar, investorlar va xususiy sektor faoliyatini o’zaro muvofiqlashtiruvchi yoshlar tadbirkorligini qo’llab-quvvatlash menejmenti ekotizimini shakllantirish alohida ahamiyatga ega. Mazkur ekotizimning tarkibiy qismlari, ularning o’zaro bog’liqligi va iqtisodiy natijadorligini baholash yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishning samarali boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqish uchun muhim ilmiy-amaliy asos bo’lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili.

Tadbirkorlik ekotizimi tushunchasi zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda tadbirkorlik faoliyatining shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir etuvchi o’zaro bog’liq institutlar, resurslar va subyektlar majmuasi sifatida qaraladi. Ushbu konsepsiya tadbirkorlik faoliyatida qaday ahamiyat kasb etishi haqida xorijiy va mahalliy olimlar bir qancha ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

Shu jumladan, Stam va van de Ven tadbirkorlik ekotizimini muayyan hududda tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishiga ta’sir ko’rsatuvchi o’zaro bog’liq aktorlar va omillarning yaxlit tizimi[5] sifatida talqin etadi. Mualliflar ekotizim elementlarining o’zaro bog’liqligini ta’kidlab, tadbirkorlik muhitini alohida omillar yig’indisi emas, balki yagona tizim sifatida o’rganish zarurligini asoslaydi.

Keying yondashuvda esa, tadbirkorlik ekotizimining shakllanishida madaniy, ijtimoiy,

hamda moddiy atributlarning va ular o'rtasidagi munosabatlarning ahamiyatiga xorijiy olimlardan biri Spigel e'tibor qaratgan. Uning fikricha, ekotizimning samaradorligi mavjud resurslarning o'zi bilangina emas, balki ushbu resurslardan foydalanish jarayonida ishtirokchilar o'rtasida shakllanadigan o'zaro hamkorlik va aloqalar bilan ham belgilanadi[6]. Mason va Brown tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda tadbirkorlik ekotizimini o'sishga yo'naltirilgan tadbirkorlikni shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi iqtisodiy hamda institutsional muhit bilan uzviy bog'liq holda o'rganilgan[7]. Chunki mazkur yondashuv tadbirkorlikning rivojlanishini alohida tadbirkor faoliyati bilan cheklamasdan, uni qo'llab-quvvatlovchi muhit va institutlar bilan bog'liq holda ko'rib chiqish imkonini beradi.

Rossiyalik tadqiqotchilar Ovchinnikova va Zimin tomonidan ham tadbirkorlik ekotizimi bo'yicha keng qamrovli izlanishlar olib borilgan. Ular tomonidan, asosan, tadbirkorlik ekotizimining nazariy va amaliy jihatlari[8] keng o'rganilgan. Ushbu tadqiqotchilarning yondashuvida tadbirkorlik ekotizimi konsepsiyasining shakllanishi va evolyutsiyasini tahlil qilinib, uni xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi hamkorlik va o'zaro muvofiqlashtirishni ta'minlovchi tadbirkorlikni tashkil etish va qo'llab-quvvatlash shakllaridan biri sifatida ko'rib chiqilgan.

Bundan tashqari, Naydenova va Novokshonova tadbirkorlik ekotizimlarini zamonaviy tadqiqotlar doirasida ko'rib chiqib, ekotizim modelining asosiy xususiyatlaridan biri sifatida iqtisodiy subyektlar o'rtasidagi o'zaro muvofiqlashtirishni[9] ko'rsatgan. Ushbu yondashuv tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashda turli institutlar faoliyatini bir-biridan alohida emas, balki o'zaro bog'liq tizim sifatida tashkil etish zarurligini asoslash uchun muhimdir.

Keying yondashuvda esa, tadqiqotda ekotizim shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar, texnologik tadbirkorlik, startaplar va innovatsion rivojlanish bilan bog'liq jihatlar yoritilgan. Bunda Rossiyalik olimlar Trifonova va Proshkina tadbirkorlik ekotizimining asosiy xususiyatlarini o'rganib, uning boshqa tashkiliy va biznes modellaridan farqlovchi jihatlarini nazariy yondashuvlar[10] asosida tahlil qilgan.

Hozirgi kunda yoshlar tadbirkorligiga oid tadqiqotlarda esa tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va yoshlarning iqtisodiy faolligini oshirish masalalariga[11] alohida e'tibor qaratilgan. Mahalliy olimlarda Raxmatullayeva yoshlar tadbirkorlik qobiliyatini shakllantirish modellari, yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi omillar hamda uni rivojlantirish modellarini tahlil qilgan. O'zbekiston sharoitida startap ekotizimining rivojlanishiga bag'ishlangan Yusupov tadqiqotida innovatsion infratuzilma, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, texnoparklar, biznes-inkubatorlar, venchur moliyalashtirish, yoshlar tadbirkorligi va xalqaro hamkorlik startap ekotizimining muhim yo'nalishlari sifatida ko'rib chiqilgan[12].

Isakjanova tadqiqotida esa, yoshlar tadbirkorligi O'zbekiston iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarishlar bilan bog'liq holda o'rganilib, uning mehnat bozori, innovatsiyalar, hududiy rivojlanish va moliyaviy ekotizim bilan aloqador jihatlari[13] tahlil qilingan. Bundan tashqari yana bir tadqiqotda O'zbekistonda startap ekotizimi va yoshlar tadbirkorligi o'rtasidagi bog'liqlik, raqamlashtirish, institutsional islohotlar va innovatsion siyosatning tadbirkorlik faoliyatiga ta'siri ko'rib chiqilgan.

Normamatova O'zbekistonda yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlashning imtiyozli moliyalashtirish, davlat dasturlari, biznes-inkubatorlar, raqamli platformalar va boshqa institutsional mexanizmlarini[14] tahlil qilgan. Tadqiqotda qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligi bilan bir qatorda, idoralararo muvofiqlashtirish, hududlar bo'yicha tafovutlar, tadbirkorlik va moliyaviy savodxonlik kabi masalalarga ham e'tibor qaratilgan.

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar tadbirkorlik ekotizimining nazariy asoslari, uning tarkibiy elementlari va o'zaro bog'liqligi, yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish modellari, startap ekotizimi hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini turli yo'nalishlarda yoritib beradi. Biroq mazkur tadqiqotlarda yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga jalb etilgan davlat organlari, moliya institutlari, ta'lim muassasalari, biznes-inkubatorlar, akseleratorlar, mentorlar, investorlar va xususiy sektor faoliyatining yagona menejment ekotizimi sifatidagi o'zaro muvofiqligi hamda uning iqtisodiy natijadorligi yetarlicha tizimlashtirilmagan.

Shu sababli mazkur tadqiqotda yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash menejmenti ekotizimini nafaqat alohida qo'llab-quvvatlash vositalari yig'indisi, balki uning ishtirokchilari, boshqaruv mexanizmlari, o'zaro aloqalari va iqtisodiy natijalari o'rtasidagi tizimli bog'liqlik asosida o'rganishga e'tibor qaratiladi. Bu yondashuv tadqiqotning asosiy ilmiy yo'nalishini — O'zbekistonda yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash menejmenti ekotizimining iqtisodiy ahamiyatini baholashni belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini tadbirkorlikni rivojlantirish, institutsional iqtisodiyot, tadbirkorlik ekotizimi hamda iqtisodiy rivojlanish nazariyalari tashkil etadi. Tadqiqot davomida O'zbekistonda yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash menejmenti ekotizimining iqtisodiy ahamiyatini aniqlash, uning tarkibiy elementlarini o'rganish va mavjud institutsional mexanizmlarning samaradorligini baholashga qaratilgan ilmiy yondashuvlardan foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning tahlil va sintez usuli, qiyosiy tahlil usuli, tizimli yondashuv usuli, statistik tahlil usuli, institutsional tahlil usuli va induktiv va gi deduktiv usullaridan foydalanildi.

Yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash menejmenti ekotizimini o'rganishda beshta asosiy tarkibiy yo'nalish ajratib olindi: inson kapitali, institutsional muhit, moliyaviy infratuzilma, innovatsion va raqamli infratuzilma hamda bozor va tarmoq aloqalari. Ushbu yo'nalishlar doirasida mavjud statistik ko'rsatkichlar, institutsional mexanizmlar va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinib, ularning yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishdagi o'rni yoritildi.

Mazkur metodologik yondashuv yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash menejmenti ekotizimining iqtisodiy ahamiyatini kompleks o'rganish, uning tarkibiy elementlari va rivojlanish tendensiyalarini aniqlash hamda mavjud institutsional va tashkiliy mexanizmlarni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosa va takliflar ishlab chiqish imkonini beradi.

Tahlil va natijalar muhokamasi

Yoshlar tadbirkorligini rag'batlantirish mamlakatda ish o'rinlarini yaratish, yangi biznes tashabbuslarini rivojlantirish, iqtisodiy faoliyatni kuchaytirish va innovatsion jarayonlarni qo'llab-quvvatlashning muhim yo'nalishi hisoblanadi.

Hozirgi kunda yosh tadbirkorlar soni yildan-yilga emas, balki Kundan-kunga oshmoqda. Yoshlar o'zlarini tadbirkorlikning turli sektorlarida sinab ko'rib o'zlariga berilgan imkoniyatlardan unumli foydalana olmoqdalar. Yoshlar tadbirkorligini bevosita tahlil qilishda umumiy kichik biznes ko'rsatkichlaridan tashqari, yosh guruhlari kesimidagi ma'lumotlardan foydalanish muhimdir. Milliy statistika qo'mitasining SIAT bazasida yakka tartibdagi tadbirkorlar soni 15–19, 20–24 va 25–29 yosh guruhlari bo'yicha alohida berilgan. Ushbu ma'lumotlar yosh tadbirkorlarning barcha turlarini qamrab olmasa-da, yosh guruhlari bo'yicha taqqoslash imkonini beradi.

1-jadval. Yakka tartibdagi tadbirkorlar soni yosh guruhlari bo'yicha tahlili

Yosh guruhi	2024-yil	2025-yil	O'zgarish, kishi	O'zgarish, %
15–19 yosh	1 569	4 691	+3 122	+199,0%
20–24 yosh	16 078	20 690	+4 612	+28,7%
25–29 yosh	28 910	32 226	+3 316	+11,5%
Jami, ko'rsatilgan guruhlar	**46 557**	**57 607**	**+11 050**	**+23,7%**


2025-yilda ya'ni 1 yil mobaynida umumiy yakka tartibdagi tadbirkorlar soni 23,7% ga oshgan. 15-19 yosh guruhidagi yakka tadbirkorlar ko'rsatkichi 2024-yilda 1 569 ko'rsatgichni ko'rsatgan bo'lsa, 2025-yilga kelib natija 4 691 ko'rsakich bilan sezilarli darajada yosh tadbirkorlarning sonini oshganini namoyish etmoqda. 20-24 yosh oralig'idagi tadbirkorlar soni esa 1 yilda 4 612 kishiga oshgan. So'nggi guruh 25-29 yosh guruhida esa o'sish sish 3 316 kishini tashkil etgan. Shuni ta'kidlash lozomki, ma'lumotlardagi eng ko'p tadbirkorlik bilan shug'ullanadigan yosh guruhi bu 25-29 yoshdagi guruh vakillari hisoblanadi, ularning soni 2024-yilda 28 910 kishini tashkil etgan bo'lsa 2025-yilga kelib ularning soni 32 226 ga yetgan. Bu yoshlarning iqtisodiy faolligi va mustaqil tadbirkorlikka kirib kelishi bo'yicha ijobiy dinamikani ko'rsatadi. Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda moliyalashtirish mexanizmlari muhim o'rin tutadi. 2025-yil 14-fevraldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-60-son qarori bilan Yoshlar ishlari agentligi huzurida Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish davlat maqsadli jamg'armasini tashkil etish belgilangan. Qarorda jamg'arma mablag'larini turli manbalar hisobidan 100 million AQSH dollari ekvivalentiga yetkazish maqsadi, jumladan, 2025-yilda davlat budjetidan 200 milliard so'm ajratish nazarda tutilgan.

2-jadval. "Yoshlar biznesi" dasturiga oid tekshirilgan ko'rsatkichlar

Ko'rsatkich	Qiymat	Davr / izoh
Ajratilgan kreditlar soni	8 206 ta	2025-yil 1-noyabr holatiga
Ajratilgan kreditlarning jami summasi	904,6 mlrd so'm	2025-yil 1-noyabr holatiga
Investitsiya kiritilgan startaplar	33 ta	Hisob palatasi axborotida qayd etilgan
Startaplarga kiritilgan investitsiyalar	25,7 mlrd so'm	Bank ustav kapitaliga yo'naltirilgan mablag'lar hisobidan
Monitoring kechiktirilgan kreditlar	3 571 ta	Audit natijasi
Maqsadli ishlatilishi baholanmagan kreditlar	1 434 ta	Audit natijasi
Ish o'rinlari bo'yicha reja va natija o'rtasidagi farq	1 310 ta kam	Audit natijasi

"Yoshlar biznesi" dasturining natijalarini baholashda 2026-yil 5-apreldagi Hisob palatasining rasmiy ma'lumoti alohida ahamiyat kasb etadi. Unda 2025-yil 1-noyabr holatida Aloqabank tomonidan dastur doirasida 8 206 ta kredit, jami 904,6 milliard so'm miqdorida ajratilishi ko'rsatilgan. Shuningdek, bank ustav kapitaliga yo'naltirilgan mablag'lar hisobidan 33 ta startap loyihasi uchun 25,7 milliard so'm investitsiya kiritilgani ta'kidlangan. Ushbu ma'lumotlar kreditlar soni va miqdori bo'yicha aniq bir sanaga bog'langan real ko'rsatkichlardir. Hisob palatasi o'tkazgan audit dastur doirasida mablag'lardan foydalanish va natijalarni nazorat qilish bilan bog'liq doimiy muammolarni aniqladi. Xususan, 3 571 ta kredit bo'yicha monitoring ishlari kechiktirilgan, 1 434 ta kreditning maqsadli ishlatilganligi esa baholanmagan. Shuningdek, audit ayrim kredit mablag'laridan belgilangan maqsadga muvofiq foydalanilmagan holatlarni ham qayd etgan. Bundan tashqari, yaratilgan ish o'rinlari

soni rejalashtirilganidan 1 310 taga kam chiqqan. Ushbu natijalar moliyalashtirish hajmining o'zigina dastur samaradorligini kafolatlay olmasligini hamda natijalarni monitoring qilish va baholash uchun mustaqil mexanizmlar zarurligini ko'rsatadi.



1-rasm. "Yoshlar biznesi" dasturi doirasidagi kreditlar va startap investitsiyalari moliyalashtirish hajmi
(2025-yil 1-noyabr holati)

Grafik kreditlar hajmi startap investitsiyalaridan ancha katta ekanini ko'rsatadi. Biroq bu farqni dastur samarasiz yoki samarali ekanining bevosita o'lchovi deb bo'lmaydi: kredit va investitsiya turli moliyaviy instrumentlar bo'lib, ularning risk darajasi, qaytarilish tartibi va iqtisodiy vazifalari farq qiladi. Yoshlar ishlari agentligining 2026-yil 26-yanvardagi rasmiy axborotida Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish davlat maqsadli jamg'armasi orqali tijorat banklari yordamida 1 279 ta yoshlar loyihasi 145,3 milliard so'm miqdorida moliyalashtirilgani qayd etilgan. Shuningdek, "Ko'mak" loyihasi bo'yicha 130 ta loyiha 13,9 milliard so'mlik moliyalashtirish uchun ma'qullangani, ulardan 61 tasi 7,5 milliard so'm miqdorida to'liq moliyalashtirilgani bildirilgan.

2026-yil 2-oktabrda e'lon qilingan rasmiy ma'lumotga ko'ra, O'zbekistonda o'zini o'zi band qilgan 5,6 million nafar shaxsning 1,9 million nafari yoshlar bo'lib, ular jami o'zini o'zi band qilganlarning 34 foizini tashkil etgan. Shuningdek, faoliyat yuritayotgan 301,2 mingta yakka tartibdagi tadbirkorning 56,6 ming nafari yoki 19 foizi yoshlar ekani qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkichlar yoshlarning mustaqil iqtisodiy faoliyatdagi ishtiroki sezilarli ekanini ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalari O'zbekistonda yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash menejmenti ekotizimini takomillashtirish iqtisodiy faollikni oshirish, bandlikni kengaytirish va yangi biznes loyihalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi.

2024–2025-yillarda ro'yxatdan o'tgan kichik biznes subyektlari soni 6,0 foizga, kichik biznesning bandlikdagi ulushi esa 1,0 foiz punktga oshgan. Shu bilan birga, uning YaIMdagi ulushi 53,5 foizdan 52,2 foizga kamaygan. Bu holat tadbirkorlikni baholashda subyektlar soni bilan bir qatorda mehnat unumdorligi va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini ham hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. Shuningdek, 15–29 yosh guruhlaridagi yakka tartibdagi tadbirkorlar sonining o'sishi yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun mavjud imkoniyatlarni kengaytirish muhimligini tasdiqlaydi.

Tahlillar asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. **Moliyaviy nazoratni kuchaytirish** — ajratilgan kreditlardan maqsadli foydalanish va moliyalashtirilgan loyihalar faoliyatini muntazam monitoring qilish tizimini takomillashtirish.

2. **Tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish** — yoshlar uchun biznes-rejalashtirish, moliyaviy savodxonlik, marketing va raqamli texnologiyalar bo'yicha amaliy ta'lim hamda mentorlik dasturlarini kengaytirish.

3. **Natijadorlikni baholash tizimini takomillashtirish** — dasturlar samaradorligini faqat ajratilgan mablag'lar bilan emas, balki biznesning barqarorligi, yaratilgan ish o'rinlari va daromadlar dinamikasi orqali baholash.

4. **Bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish** — yosh tadbirkorlarni biznes-inkubatorlar, elektron savdo platformalari va potensial hamkorlar bilan bog'lash mexanizmlarini rivojlantirish.

5. **Yagona monitoring tizimini shakllantirish** — yoshlar tadbirkorligi bo'yicha statistik ma'lumotlarni tizimlashtirish va davlat dasturlari natijalarini shaffof baholashni yo'lga qo'yish.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash ekotizimining samaradorligi moliyaviy yordamni ta'lim, mentorlik, raqamlashtirish va bozor infratuzilmasi bilan uyg'unlashtirishga bog'liq. Ushbu yo'nalishlarni kompleks rivojlantirish yoshlar biznesining barqarorligini ta'minlash, samarali bandlikni oshirish va mamlakat iqtisodiyotida qo'shilgan qiymat yaratishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi PQ-60-son qarori. *Yoshlar tadbirkorligini hamda ularning bandligini ta'minlashga qaratilgan biznes loyihalarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida.* — URL: https://www.lex.uz/uz/acts/-7386867

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 10-iyuldagi 426-son qarori. — URL: https://www.lex.uz/uz/acts/-7621917

3. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. *Yakka tartibdagi tadbirkorlar soni yosh guruhlari bo'yicha.* — Statistika ma'lumotlarining SIAT portali. URL: https://siat.stat.uz/

4. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. *Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi.* — URL: https://siat.stat.uz/data/1840/

5. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. *Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami bandlikdagi ulushi.* — URL: https://siat.stat.uz/data/274/

6. O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi. (2026). *"Yoshlar biznesi" dasturi ijrosi yuzasidan audit natijalari bo'yicha rasmiy axborot.* — Hisob palatasining rasmiy axborot resurslari.

7. O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi. (2026). *Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish davlat maqsadli jamg'armasi orqali loyihalarni moliyalashtirishga oid rasmiy axborot.* — Agentlikning rasmiy axborot resurslari.

8. International Labour Organization. *Global Employment Trends for Youth 2024: Decent Work, Brighter Futures.* — Geneva: International Labour Office, 2024. — URL: https://www.ilo.org/publications/major-publications/global-employment-trends-youth-2024

9. Stam, E., van de Ven, A. Entrepreneurial Ecosystem Elements // *Small Business Economics.* — 2021. — Vol. 56. — P. 809–832. — DOI: https://doi.org/10.1007/s11187-019-00270-6

10. Spigel, B. The Relational Organization of Entrepreneurial Ecosystems // *Entrepreneurship Theory and Practice.* — 2017. — Vol. 41, No. 1. — P. 49–72. — DOI: https://doi.org/10.1111/etap.12167

11. Mason, C., Brown, R. *Entrepreneurial Ecosystems and Growth-Oriented Entrepreneurship.* — Background paper prepared for the OECD LEED Programme and the Dutch Ministry of Economic Affairs, 2014. — URL: https://eprints.gla.ac.uk/93748/

12. OECD. *Entrepreneurial Ecosystem Diagnostics*. — Paris: OECD Publishing, 2025. — DOI: https://doi.org/10.1787/7096961f-en

13. Raxmatullayeva, F. Yoshlarda tadbirkorlik qobiliyatini shakllantirish va yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish modellari // *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot*. — 2025. — T. 3, № 1. — DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.14685200. URL: https://green-eco.uz/index.php/GED/article/view/4194

14. Yusupov, J. O'zbekistonda startap ekotizimining rivojlanishi // *Iqtisodiyot va Innovatsiyalar Jurnali*. — 2026. — T. 1, № 1. — B. 48–56. — DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.20823234. URL: https://x7.tsue.uz/article/detail/ozbekistonda-startap-ekotizimining-rivojlanishi/

15. Isakjanova, S. Kichik biznesni rivojlantirishda yoshlar tadbirkorligining o'rni va ahamiyati // *Green Economy and Development*. — 2026. — T. 4, № 2. — DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.18553648. URL: https://www.yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/9103

16. Isakjanova, S. Yoshlar tadbirkorligining bandlikni ta'minlashdagi roli va ta'siri (O'zbekiston misolida) // *Qo'qon universiteti xabarnomasi*. — 2026. — Maqolaning jild, son va sahifa ma'lumotlarini jurnalning rasmiy sahifasidan aniqlashtirish lozim. URL: https://ilmiz.uz/maqola/14971-yoshlar-tadbirkorligining-bandlikni-taminlashdagi-roli-va-tasiri-o-zbekiston

17. Ovchinnikova, A. V., Zimin, S. D. Assessment of Relations of Business Ecosystems with the Level of Economic Development of Regions of Russia // *Journal of Applied Economic Research*. — 2021. — Vol. 20, No. 3. — P. 362–382. — DOI: https://doi.org/10.15826/vestnik.2021.20.3.015. URL: https://journalaer.ru/en/archive/journal/276/article/2513/

18. Ovchinnikova, A. V., Zimin, S. D. Impact of Infrastructural and Institutional Support of Entrepreneurial Ecosystems on Their Development // *Научный журнал Южно-Уральского государственного университета*. — 2023. — № 1. — С. 3–21. — DOI: https://doi.org/10.24412/2311-1313-37-3-21. URL: https://journal-inueco.ru/?p=2301

19. Naydenova, T. A., Novokshonova, E. N. Business Ecosystems in the Research Field // *Вестник Бурятского государственного университета. Экономика и менеджмент*. — 2022. — № 3. — С. 79–90. — DOI: https://doi.org/10.18101/2304-4446-2022-3-79-90. URL: https://journals.bsu.ru/journals/em/?article=3130&issue=310

20. Trifonova, N. V., Khutieva, E. S., Proshkina, A. S., Irina, L. B., Gunkova, P. I. Entrepreneurial Ecosystems of the Leading Universities // *Proceedings of the International Session on Factors of Regional Extensive Development (FRED 2019)*. — Advances in Economics, Business and Management Research. — 2020. — P. 266–270. — DOI: https://doi.org/10.2991/fred-19.2020.54. URL: https://www.atlantis-press.com/proceedings/fred-19/125931834